
Fuqaroning uy ta'mirida amaliy yordam so'rab qilgan murojaati ijobiy hal etildi

Kecha 3-sonli musiqa va san'at maktabida shahar hokimligi tomonidan sayyor qabul o'tkazilganligi haqida xabar bergan edik. Qabul davomida "Soybo'yi" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi fuqaro Qanoatxon Mirzatillaeva qurilishi yakunlanmay qolgan uyini bitkazishda amaliy yordam so'rab shahar hokimi Vosiljon Nazarovga murojaat qilgandi. Shu kunning o'zida fuqaroning xonadoniga mas'ullar tashrif byurishib, xonadonning moddiy ta'minoti va qurilish ishlari bilan yaqindan tanishdilar. Bugun mazkur xonadonga qurilish ishlarini davom ettirish maqsadida homiylik mablag'lari hisobiga zamonaviy eshik va romlar olib borib berildi. Fuqaro Q.Mirzatillaeva ko'rsatilgan e'tibor va g'amxo'rlikdan xursand bo'lib, Davlatimiz rahbari va sahovatpesha insonlarga o'z minnatdorchiligini bildirdi. Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-11-09 18:34:19